



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 27-avgust

438-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sanoat sohasida nufuzli xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va milliy brendlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2024-yil 7-avgustdagi PQ-286-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 389-6-0-Q/24-son qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sanoat sohasida nufuzli xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va milliy brendlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 7-avgustdagi PQ-286-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-avgustdagi 389-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

### **QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sanoat sohasida nufuzli xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va milliy brendlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 7-avgustdagi PQ-286-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-avgustdagi 389-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-avgustdagi PQ-286-son qarori bilan:

Savdo-sanoat palatasi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining tadbirkorlik subyektlarining “O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan” (“Made in Uzbekistan”) yorlig‘i ostida xalqaro brendlarning global qo‘shilgan qiymat zanjiriga kirishini rag‘batlantirish hamda milliy sanoat brendlarini qo‘llab-quvvatlash dasturini amalga oshirish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullanganligi;

shunday tartib o‘rnatilganki, unga muvofiq 2025-yildan boshlab har yili 1-aprelga qadar Savdo-sanoat palatasi maxsus elektron platformada:

a) nufuzli xalqaro brendlar ro‘yxatini xalqaro e‘tirof etilgan tashkilotlarning so‘nggi reytingida birinchi 500 o‘rinni egallagan sanoat yo‘nalishidagi brend egalari ichidan saralab olgan holda shakllantirishi va e‘lon qilishi;

b) milliy brendlar ro‘yxatini ikki bosqichda shakllantirishi va e‘lon qilishi:

birinchi bosqichda Adliya vazirligi va Soliq qo‘mitasi bilan birgalikda 1-ilovaga muvofiq sanoat yo‘nalishlari bo‘yicha yuqori va o‘rta barqarorlik reytingiga ega tadbirkorlik subyektlarining belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan tovar belgilari ro‘yxatini shakllantirishi;

ikkinchi bosqichda ro‘yxatga kiritilgan tovar belgilari bo‘yicha milliy konsalting kompaniyalarining tadqiqotlari, mazkur tovar belgilari ommaviy axborot vositalari, internet va

ijtimoiy tarmoqlarda yoritilishi holati va ular to'g'risida so'rovlar soni, aholi o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovlar tahlili natijalari asosida milliy brendlar ro'yxatini shakllantirishi va e'lon qilishi;

2024-yil 1-sentabrdan boshlab Savdoga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari hisobidan quyidagi moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari joriy qilinganligi:

a) nufuzli xalqaro brendlar ro'yxatiga kiritilgan brend egalari bilan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish to'g'risida to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzgan yuqori va o'rta barqarorlik reytingidagi tadbirkorlik subyektlari (keyingi o'rinlarda brend hamkorlari) uchun:

xalqaro standartlarni joriy qilish, ekologik va muvofiqlik bo'yicha sertifikatlash, shuningdek, mazkur qarorga 2-ilovada keltirilgan ro'yxatdagi mutaxassislarning brend egalari hisoblangan korxonalarda, jumladan, ularning ishlab chiqarish maydonlarida malakasini oshirish xarajatlarini qoplash;

nufuzli xalqaro brendlar ostida kamida 1 million AQSh dollari miqdorida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilganda grantlar ajratish;

b) milliy brendlar ro'yxatiga kiritilgan brend egalari (keyingi o'rinlarda milliy brend egalari) quyidagi xarajatlarning 50 foizigacha qismini qoplab berish:

standartlashtirish va sertifikatlashning xalqaro tizimlarini joriy etish, shuningdek, xorijiy vakolatli organlarda milliy mahsulotlar va brendlarni (tovar belgilarini) ro'yxatdan o'tkazish;

xalqaro savdo maydonchalariga (marketpleyslarga) chiqish, xorijiy davlatlardagi "Made in Uzbekistan" shourumlarida mahsulotlarini joylashtirish, xorijiy savdo uylarini tashkil qilishda binolarni ijaraga olish;

xalqaro ko'rgazmalarda qatnashish uchun ro'yxatdan o'tish, joyni ijaraga olish, ko'rgazma stendlarini tashkil etish va mahsulotlar reklamasini internet tarmog'ida joylashtirish;

ishlab chiqarish biznes jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha (CRM, ERP, CERM) axborot tizimlarini joriy qilish;

mazkur qarorga 2-ilovaga muvofiq kamida bir yilga jalb qilingan malakali xorijiy mutaxassislarning ish haqini to'lash;

v) Savdo-sanoat palatasi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan tarmoq uyushmalari bilan birgalikda ishlab chiqiladigan dastur asosida sanoat sohalari uchun talab yuqori bo'lgan, mazkur qarorning 2-ilovasida ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'yicha mahalliy mutaxassislarni o'qitish va malakasini oshirishi;

mazkur badda nazarda tutilgan xarajatlarni moliyalashtirish uchun Savdoga ko'maklashish jamg'armasidan 25 million AQSh dollari miqdorida mablag' yo'naltirilish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-37-son Farmoni bilan 2024-yil 1-iyuldan boshlab:

nufuzli xalqaro brendlar bilan ishlab chiqarishni boshlayotgan korxonalar uch yil davomida nufuzli xalqaro brendlar ostida ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun zarur bo'lgan barcha xomashyolar mahalliyashtirish darajasini kamida 60 foizga yetkazish sharti bilan bojxona bojidan ozod etilganligi;

nufuzli xalqaro brendlardan jalb qilingan texnolog, dizayner, marketolog kabi mutaxassislardan O‘zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tasdiqnoma berilganligi uchun to‘lovlar undirilishi bekor qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinganligi;

belgilanishicha:

a) mazkur qarorning 6-bandida belgilangan bojxona boji imtiyozlari “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUK xulosasi asosida taqdim etilishi;

bunda 2027-yil 1-yanvar holatiga nufuzli xalqaro brendlar ostida ishlab chiqariladigan mahsulotlarning mahalliyashtirish darajasi 60 foizdan kam bo‘lganda imtiyoz qo‘llanishi natijasida tadbirkorlik sub’ektlari ixtiyorida qolgan summalar qaytarib olinishi;

b) 2024-yil 1-sentabrdan 2027-yil 1-yanvarga qadar mahsulotining kamida 30 foizini nufuzli xalqaro brend ostida ishlab chiqaradigan brend hamkorlari uchun yer solig‘i, mol-mulk solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari hisobot davrida 50 foizga kamaytirilishi;

v) 2024-yil 1-sentabrdan boshlab brend hamkorlari va milliy brend egalari tomonidan mazkur qarorga 2-ilovadagi ro‘yxat bo‘yicha mutaxassis sifatida jalb qilingan chet el fuqarolari uchun O‘zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tasdiqnomaning amal qilish muddati 3 yilgacha etib belgilanganligi;

xalqaro brendlarni jalb qilish va milliy brendlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-avgustdagi 389-6-0-Q/24-sonli qarori bilan:

Viloyat hokimining o‘rinbosarlari O.Inamov, G‘.Murodxujayev, Savdo-sanoat palatasi hududiy boshqarmasi (O.Akbarov), Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (R.Rasulov) Adliya boshqarmasi (D.Axmedov) manfaatdor boshqarma, idora va tashkilotlar hamda Namangan shahar va tumanlar hokimlari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-avgustdagi PQ-286-son qarorining 3-ilovasidagi xalqaro brendlarni jalb qilish va milliy brendlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha “yo‘l xaritasi”da nazarda tutilgan topshiriqlarni o‘z muddatida va sifatli amalga oshirishini ta’minlash yuklatilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Abdusalomov va tuman hokimining o‘rinbosari-Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi boshlig‘i Sh.Umaraliyev zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**